

## MUSIQA - O'QUVCHILARNI MA'NAVIY TARBIYALASHNING MUHIM VOSITASI

Aznarov Xalimjon Mamadaliyevich

Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani

59-umumta 'lim maktabining

Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa o'quvchilarning ma'naviy tarbiyalashning muhim vositasi ekani haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** kuy, maqom, navo, cholg'u va yangi pedagogik texnologiyalar

Yosh avlodni zamon talablari asosida tarbiyalash ularning bilim saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviy-ahloqiy ongini o'stirish, ijodiy fikrlash darajasini rivojlantirish, dunyoni, unda yuz berayotgan voqealarni estetik did bilan, go'zallik asosida idrok eta olishga o'rgatib borishda musiqa tarbiyasining o'rni alohida ahamiyatga molikdir.

O'zbek xalqi o'zining boy ma'naviy-musiqiy bisotiga ega bo'lib, u xalqimizning kundalik hayoti, turmush tarzi, urf odatlari, turli an'analari va milliy qadryatlariga shu darajada singib ketganki ularni bir-biridan ayro holda tasavvur qilish qiyin.Umumiyligida ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning muhim qirralaridan biri o'qitiladigan fanlar tizimida ularni musiqa orqali tarbiyalashdan iborat. Mustaqillik tufayli xalqimizning musiqa san'atiga, uning milliy merosi va boy an'analari bo'lgan munosabati o'zgardi. Xususan, buyuk qomusiy allomalarimizning musiqa haqidagi traktatlarini o'rganish va uni hayotga joriy qilishga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Folklor qo'shiqlari, raqs va musiqalarini ommaviy o'rganishga katta yo'l ochib berildi. O'zbek va tojik xalqlarining milliy bisoti bo'lgan "SHashmaqom" shaklidagi boy musiqiy merosini namoyish etish an'anaga aylandi. "Xorazm maqomlari", "Farg'ona-Toshkent" maqom yo'lidagi asarlar, ko'plab mumtoz hofizlarimiz va mashshoqlarimiz repertuarlaridan keng o'rinni boshladi. O'nlab turli mavzularda bitilgan, xalqimizning boy tarixi, urf odatlari, udum va an'analarni ifodalovchi dostonlari keng namoyish qilina boshlandi.Bu beba ho musiqiy meros o'z zamirida yosh avlodga singdirilishi zarur bo'lgan milliy-ahloqiy madaniyatimizning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirilgan. 1-7 sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ta'lim standartlarida musiqiy ta'limni aynan shu milliy musiqiy merosimiz asosida olib borish nazarda tutilgan.Buyuk allomalarimiz xalqimiz uchun suv va havodek zarur bo'ladigan ma'naviy-ahloqiy hislatlar haqida to'xtalar ekan ular o'zlarining didaktik asarlarida to'g'riso'zlik, halollik, poklik, sahovatlilik, insonparvarlik, do'stlik, Vatanga muhabbat, sabr-toqatlilik,

mehnatsevarlik, kasbga havas, kishilar yaratgan ne'matlar va tabiatga extiyotkorlik, mardlik, xushmuomalalik, e'tiqodlilik va boshqa milliy hamda umuminsoniy fazilatlarni har-bir yoshga singdirib borish ma'naviy ahloqiy tarbiyaning asosiy me'zonlaridan ekanligini ta'kidlab o'tganlar. Bu muhim pedagogik muammoni amalgalashda barcha fanlar qatori "Musiqa madaniyati" darslarining ham o'z munosib o'rni bor. CHunki musiqa vositasi boshqa har qanday vositalardan ham ta'sirliroq bo'lib, ayniqsa yosh avlodning ichki tuyg'ularini, hissiy olamini harakatga keltira oluvchi buyuk kuchdir. Musiqa darslarida qo'llaniladigan faoliyat turlari va musiqaning o'ziga xos spetsifik xususiyatlari o'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning barcha sifatlarini amalgalashga qulay imkon yaratishi mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya haqida pedagogika sohasi mutaxassislari va buyuk allomalar fikrlariga tayangan holda quyidagi xulosaga kelish mumkinki, ma'naviy-ahloqiy tarbiya deganda biz yosh avlodni ahloq-odobli, iymon e'tiqodli, o'z milliy qadriyatlarini chuqur biladigan, jahon xalqlari madaniyatini tushinadigan, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan aqlii, esli-xushli, zukko, bilimdon kabi ijobjiy fazilatlarga ega bo'lgan yoshlarni ko'z oldimizga keltiramiz. Xususan musiqa vositasida ma'naviy-ahloqiy tarbiyalanganlik yosh avlodda quyidagi sifatlar mavjud bo'ladi: musiqa darslaridagi mavjud barcha faoliyat turlarida faol ishtirok etadi; musiqa darslari, musiqa o'qituvchisi va musiqa kasbidagi barcha kishilarga xurmat bilan qaraydi; sinfdoshlari va boshqa o'quvchilarning iqtidorini qadrlaydi. Ularga xavas qiladi. milliy istiqlol haqidagi qo'shiqlardan boy repertuarga ega; o'zbek xalq musiqiy merosdan puxta bilimga ega va ularning xalq an'analaridagi o'rnini yaxshi biladi; cholg'u sozlari va sinfdagi barcha narsalarni asrab avaylaydi, gullarni o'stirishda faol ishtirok etadi; o'zbek xalq hofizlari, musiqachilari haqida yetarlicha bilimga ega va ularning an'analarini davom ettirishda o'z iqtidorini takomillashtirish ustida tizimli ravishda ish yuritadi; jahon hamjamiyatida mashhur bo'lgan asarlar va ularning mualliflari haqida yetarlicha bilimga ega. Ularga hurmat bilan qaraydi; o'zbek cholg'u sozlaridan birida yoki fortepianoda asarlar ijro eta oladi. Yoqimli ovozda qo'shiq kuylay oladi. Bu xislatlar o'z navbatida o'quvchilar uchun zarur bo'ladigan barcha ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni rivojlantirish uchun ham asqotishi tabiiydir. Pedagogika, ta'lim tarbiyaga oid adabiyotlarni o'rganish natijasida barcha ahloqiy hislatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi bir qator yo'naliishlarni belgilab olishga erishdim. Biz bu yo'naliishlarni quyidagi tartibda belgilashni o'rinli deb topdim: Ona Vatanga muhabbat hislarini tarbiyalash. Bunda biz ona Vatan haqidagi asarlarni, uning so'lim tabiatini, tengsiz osmoni, sarhadsiz dalalari, flora va faunasi, biz mehnatkash xalqi uning ma'naviy-ahloqiy qarashlarini ulug'lovchi qo'shiqlarni o'rganish. Bu yo'naliish o'z ichiga boshqa xalqlar bilan tinch totuv yashash, ularning san'ati va madaniyatini hurmat qilish kabi ahloqiy sifatlarni ham oldim. Mehnatga munosabat hislarini tarbiyalash. Mehnatning hayotiy zaruriyatini bilish. Musiqa kasbidagi kishilarning: kompozitorlar, cholg'uchilar, ashulachilar va boshqalarning

mehnatini qadrlash, cholg'u sozlarini asrash va o'z ovozini saqlash uchun harakat qilish. Boshqa barcha mehnat kishilarini hurmat qilish va ularning mehnat natijalarini avaylab asrashga intilish. Halol mehnat qilib yashashga ishtiyoq. Ilmga intiluvchanlik, sabr bardoshlilik, mahorat, uquv, malakalilik va boshqa hislar. Boshqa kishilarni hurmatlash va e'zozlash munosabatini shakllantirish. Ota-onasiga, aka-ukasiga, opa-singil va qarindosh urug', tanish bilish, o'quvchilarga, mahalladoshlar va umuman boshqalarga bo'lgan munosabat. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish. Ularning turli an'analariga, tavallud kunlari va bayramlariga e'tiborli bo'lish. Tengdoshlari, sinfdoshlari, maktabdoshlari, komandadoshlari va boshqalarga hurmatda bo'lish. O'z-o'ziga bo'lgan hurmat hislarini tarbiyalash. Bu yo'naliш bo'yicha o'quvchining o'z burchini qay darajada anglashi va unga amal qilishi nazarda tutiladi. O'quvchining o'z ota-onasi oldidagi farzandlik burchi, aka-uka, opa-singil oldidagi va qarindosh oldidagi burchi, tanish-bilish, mahalla-kuy va begonalar oldidagi insoniylik burchi, o'quvchilik, shogirdlik, sinfdoshlik burchi, Vatan va el-yurt oldidagi burchlar ham shular jumlasidandir. Burch hissi o'z navbatida mehr-oqibat, halol-poklik, sadoqat, ezgulik, hamdardlik, xayriyoxlik, samiyimiylik, sahiylik, kamtarinlik, muloyimlik, shirin so'zlilik, sharmu-hayolilik, shijoatlilik, mardlik, jasorat kabi bir-birini mazmunan to'ldirib turuvchi insoniy fazilatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat va diniy e'tiqod, iymonlilik tarbiyasi: bu yo'naliш sobiq ittifoq davridagi xudosizlik balosidan farqli o'laroq, ollohning yagonaligi, halol-haromning farqini bilish, o'z dili va tanasi, a'zolarini pok tutish, ya'ni, o'g'irlilik, xiyonat, foxishalik kabi illatlardan saqlanish, uyat, iffat, nomus-orini ushslash, isrofdan, hasaddan, ochko'zlik, birovlarining xaqini yeyishdan, yolg'onchilik kabi illatlardan hazar qilish. Xalqimiz, xususan musulmonlar tomonidan o'tkaziladigan barcha tadbirlarda baxoli-qudrat ishtirok etish, el bilan birga bo'lish. Keyingi yillarda nafs balosiga uchrab missionistik oqimlarga berilib ketishdan o'zini asrash. Ayni paytda boshqa millat va boshqa e'tiqodda bo'lgan kishilarning urf odatlari va e'tiqodini hurmat qilish, diniy bag'ri kenglik hislatlariga amal qilish. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan o'quv dasturida belgilab berilgan yo'naliшlar bo'yicha o'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasini amalga oshirish uchun yetarlicha materiallar borligini kuzatdik. Ayni paytda hozirgi intensiv hayot sharoitida axborotlar va yangiliklar oqimi borgan sari kuchayib bormoqda, ko'plab yangi asarlar yaratilmoqda, yangi pedagogik texnologiyalarni musiqa ta'limi tizimiga joriy qilish bo'yicha xilma-xil metodlardan foydalanish zarurati tug'ilmoqda. Bu esa o'z navbatida musiqa darslarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy qarashlarini yangicha uslubda shakllantirishga bo'lgan ehtiyojini nazarda tutgan holda ko'plab yangi manbalar va materiallardan, o'qitish uslublariga murojaat qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Zamon talabidan ortda qolmaslik uchun musiqa o'qituvchisi o'z ustida tinmay ishlashi, kirib kelayotgan didaktik materiallarni aql tarozisida o'lchab undan

unumli foydalana olish, zarurat bo'lganda o'z ish uslubini o'zgartirish, o'quvchilarning mustaqil fikr yurita olishlariga sharoit yaratib bera olishi, o'quv dasturini yangi-yangi asarlar bilan boyitib borishi, dars sifatini yanada mazmunli qilish va dars jarayonini yanada qiziqarliroq qilib olib borish ustida tinimsiz izlanishi zarur bo'lmoqda. Buning o'zi hali musiqa pedagogikasi sohasida hal qilinmagan jiddiy muammolar mavjud ekanligidan dalolat beradi. Baholanish o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash masalasi ham o'z-o'zidan oqsayotganligining asl sababi ham shundan kelib chiqmoqda. Muammoning bu qadar keskinligi va musiqa vositasida o'quvchilarga ma'naviy-ahloqiy tarbiya berish bir guruh olimlar tomonidan hal qilinadigan muammo bo'lmay uning yechimini topish va hayotda keskin o'zgartishlar kiritish har bir musiqa mutahassis, har bir uslubiyotchi va har bir musiqa o'qituvchisining ham sa'yil harakatlarini talab qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch".I.A.Karimov
2. Musiqa .Darsliklar.
3. Musiqa madaniyati.Nishonov A.Raxmonov G'
4. zyonet.uz